FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
10 (2)-son

UDK: 316.356.2:159.9

**Shukurova Ilminur Baxtiyorjon qizi,**
mustaqil tadqiqotchi

# KO‘P AVLODLI OILALARDA AVLODLARARO MUNOSABATLAR VA O‘ZARO TA’SIRNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko‘p avlodli oilalarda avlodlararo munosabatlar va o‘zaro ta’sirning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mazkur oilalarda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida tahlil qilinadi. Xususan, oilaviy ahamiyatga ega masalalarni hal etishda qaysi avlod vakillarining fikri ko‘proq inobatga olinishi, katta avlod vakillarining yoshlarning tanlovi va qarashlariga munosabati, kelishmovchiliklarning asosan qaysi avlod vakillari o‘rtasida yuzaga kelishi, qiyin vaziyatlarda oila a’zolarining bir-birini qo‘llab-quvvatlashi hamda kundalik oilaviy vazifalarning taqsimlanishi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari asosida ko‘p avlodli oilalarda katta avlodning yetakchi mavqega ega bo‘lishi yosh avlod fikrining inkor etilishini anglatmasligi, shuningdek, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va kundalik kelishmovchiliklar bir oilaviy tizim doirasida bir vaqtda namoyon bo‘lishi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar**: ko‘p avlodli oila, avlodlararo munosabatlar, o‘zaro ta’sir, qaror qabul qilish, kelishmovchiliklar, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, oilaviy vazifalar taqsimoti, katta avlod, yosh avlod.

# СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В МНОГОПОКОЛЕННЫХ СЕМЬЯХ

**Аннотация.** В статье анализируются социально-психологические особенности межпоколенческих отношений и взаимодействия в многопоколенных семьях на основе результатов исследования, проведённого в таких семьях. Особое внимание уделяется тому, мнение представителей какого поколения чаще учитывается при решении важных семейных вопросов, как старшее поколение относится к выбору и взглядам молодых членов семьи, между представителями каких поколений преимущественно возникают разногласия, каким образом члены семьи поддерживают друг друга в трудных ситуациях, а также как распределяются повседневные семейные обязанности. На основе результатов исследования показано, что ведущая роль старшего поколения в многопоколенных семьях не означает игнорирования мнения младшего поколения. Подчёркивается, что взаимная поддержка и повседневные разногласия могут одновременно присутствовать в рамках одной семейной системы.

**Ключевые слова:** многопоколенная семья, межпоколенческие отношения, взаимодействие, принятие решений, разногласия, взаимная поддержка, распределение семейных обязанностей, старшее поколение, младшее поколение.

# SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INTERGENERATIONAL RELATIONS AND INTERACTION IN MULTIGENERATIONAL FAMILIES

**Abstract.** This article examines the socio-psychological characteristics of intergenerational relations and interaction in multigenerational families based on the findings of a

study conducted in such families. Particular attention is paid to whose opinions are most frequently taken into account when making important family decisions, how older family members respond to the choices and views of younger generations, between which generations disagreements most commonly arise, how family members support one another in difficult situations, and how everyday household responsibilities are distributed. The research findings demonstrate that the leading position of the older generation in multigenerational families does not necessarily imply the disregard of younger family members' opinions. The article also highlights that mutual support and everyday disagreements can coexist within the same family system.

**Keywords:** multigenerational family, intergenerational relations, interaction, decision-making, disagreements, mutual support, distribution of household responsibilities, older generation, younger generation.

## KIRISH

Oila jamiyatning eng qadimiy va barqaror ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, inson shaxsining shakllanishi, ijtimoiy tajriba hamda qadriyatlarning bir avloddan ikkinchisiga uzatilishi jarayoni, avvalo, oila muhitida kechadi. Bir xonadonda istiqomat qiluvchi turli avlod vakillari nafaqat bir-birlariga g‘amxo‘rlik va amaliy yordam ko‘rsatadilar, balki o‘zlarining hayotiy tajribalari, urf-odatlari, qarashlari va yashash tarzlarini ham o‘zaro almashadilar. Shu sababli oilani o‘rganishda uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar bilan bir qatorda, ushbu munosabatlarning avlodlar kesimida qanday shakllanishi va namoyon bo‘lishini ham alohida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda oilaning tarkibi va yashash shakllarida muayyan o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, bir xonadonda bir necha avlod vakillarining birgalikda istiqomat qilishi dunyoning turli mamlakatlarida saqlanib qolmoqda. Bu holat uy xo‘jaliklari tarkibi va demografik ko‘rsatkichlarda ham o‘z aksini topadi [3; 4]. O‘zbekistonda ham uy xo‘jaliklarining sezilarli qismida olti va undan ortiq kishi birgalikda istiqomat qiladi [5]. Bunday oilaviy muhit oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro yordam, hayotiy tajriba almashinuvi va hissiy yaqinlikning shakllanishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, turli yosh va hayotiy tajribaga ega insonlarning bir makonda birgalikda yashashi oilaviy qarorlarni qabul qilishda kimning fikri ustuvor bo‘lishi, shaxsiy chegaralarning qay tarzda belgilanishi hamda kundalik oilaviy vazifalarning qanday taqsimlanishi kabi masalalarni ham yuzaga keltiradi.

Psixologiya fanida oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar va ularning turli hayotiy vaziyatlardagi o‘zaro ta’siri kichik ijtimoiy guruh doirasida o‘rganiladi [1; 2]. Oilaviy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, oila er-xotin, ota-ona va farzandlar kabi o‘zaro bog‘liq kichik tizimlardan tashkil topadi. Ushbu tizimlar o‘rtasidagi chegaralar, rollar va ierarxik munosabatlar oilaning faoliyat yuritish xususiyatlarini belgilaydi [6]. Avlodlararo munosabatlarni o‘rganishda esa Vern Bengtson va Robert Roberts tomonidan ishlab chiqilgan avlodlararo birdamlik modeli muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur model avlodlar o‘rtasidagi muloqot va aloqa darajasi,

hissiy yaqinlik, qadriyatlar uyg‘unligi hamda amaliy yordam almashinuvi kabi muhim o‘lchovlarni qamrab oladi [7]. Keyingi tadqiqotlarda Bengtson va hammualliflar avlodlararo birdamlik va ziddiyatni bir-birini inkor etuvchi hodisalar sifatida emas, balki bir oilaviy munosabatlar tizimida bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan jarayonlar sifatida izohlaganlar [8].

Avlodlararo munosabatlar, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ko‘p avlodli oilalardagi ijtimoiy rollar hamda turli avlod vakillarining qadriyatlari bilan bog‘liq masalalar mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda turli nuqtayi nazarlardan o‘rganilgan [9; 10; 11; 12; 13]. Kundalik oilaviy hayotda esa avlodlararo munosabatlar qaror qabul qilish, kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi, o‘zaro yordam va oilaviy vazifalarning taqsimlanishi kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatlarni yagona tadqiqot doirasida kompleks ravishda o‘rganish avlodlararo munosabatlarning turli ko‘rinishlarini o‘zaro taqqoslash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur maqolada ham avlodlararo munosabatlar aynan shu kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqot ko‘p avlodli oilalarda avlodlararo munosabatlar va o‘zaro ta’sirning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent shahri, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi ko‘p avlodli oilalar vakillari tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida so‘rov, suhbat va kuzatuv metodlaridan, shuningdek, muallif tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovnomadan foydalanildi. So‘rovnoma oilaviy munosabatlarning turli jihatlarini aniqlashga qaratilgan yopiq savollardan tashkil topgan bo‘lib, respondentlarga har bir savol bo‘yicha oldindan belgilangan javob variantlaridan birini tanlash imkoniyati berildi. Mazkur maqolada so‘rovnomaning oilaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida turli avlod vakillarining o‘rni, katta avlodning yoshlarning tanlovi va fikriga munosabati, kelishmovchiliklar asosan qaysi avlod vakillari o‘rtasida yuzaga kelishi, qiyin vaziyatga tushgan oila a’zosiga nisbatan ko‘rsatiladigan yordam va munosabat, shuningdek, kundalik oilaviy vazifalarning taqsimlanishini aniqlashga qaratilgan savollari tahlil qilindi.

So‘rov natijalarini yanada chuqurroq anglash va ularni oilaviy hayotning real sharoitlari bilan bog‘liq holda sharhlash maqsadida qo‘shimcha tadqiqot metodlaridan ham foydalanildi. Xususan, tadqiqot doirasida oilalarga tashriflar amalga oshirilib, respondentlar bilan bevosita suhbatlar o‘tkazildi hamda oilaviy munosabatlarning kundalik hayotdagi namoyon bo‘lish xususiyatlari kuzatildi. Suhbat va kuzatuv jarayonida olingan ma’lumotlar alohida empirik natijalar sifatida emas, balki so‘rov natijalarini to‘ldirish, ularni chuqurroq izohlash va oilaviy munosabatlarning mazmunini yaxshiroq ochib berishga xizmat qiluvchi yordamchi materiallar sifatida qo‘llanildi.

## NATIJALAR

So‘rov natijalari tadqiqot savollariga mos ravishda tahlil qilindi. Avval oilada qarorlarni qaysi avlod fikri belgilashi, so‘ngra bu ustunlik yoshlar fikriga munosabatda, kelishmovchiliklarda, qiyin vaziyatdagi yordamda va kundalik vazifalarda qanday namoyon bo‘lishi ko‘rib chiqildi.




1-rasm. “Sizning oilangizda eng ko‘p kimlarning aytgani bo‘ladi?” savoliga javoblar (%) hisobida

Oilaviy masalalarni hal etishda qaysi avlod fikri ustun ekanini aniqlash uchun respondentlarga “Sizning oilangizda eng ko‘p kimlarning aytgani bo‘ladi?” savoli berildi. 1-rasmdan ko‘rinadiki, respondentlarning yarmidan ko‘pi (51,67 %) oilada ko‘proq katta avlod vakillarining aytgani bo‘lishini bildirgan, 30,38 foizi esa o‘rta avlodni ko‘rsatgan. Barcha a’zolarning fikri teng inobatga olinishini 12,20 foiz, kichik avlod fikrining ustunligini 5,74 foiz respondent qayd etgan. Demak, qarorlarda ustunlik asosan katta va o‘rta avlod o‘rtasida taqsimlangan, tenglikka asoslangan qaror qabul qilish esa kam uchraydi. Oilaviy tizim nazariyasida ierarxiya deb ataladigan bunday tabaqalanishni [6] mazkur natija bilan bog‘lab izohlash mumkin.

**1-jadval**

**Avlodlararo munosabatlar bo‘yicha javoblar taqsimoti**

| Savollar | Eng ko‘p tanlangan javoblar | Foiz (%) | Ikkinchi o‘rinda | Foiz (%) | Uchinchi o‘rinda | Foiz (%) | To‘rtinchi o‘rinda | Foiz (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Katta avlod yoshlarning tanlovi va fikrini qanday qabul qiladi** | Ba’zan qo‘llab-quvvatlaydi | 50,00 | Har doim hurmat bilan qabul qiladi | 39,71 | E’tiborsiz qoldiradi | 7,42 | Hech qachon qabul qilmaydi | 2,87 |
| **Kelishmovchilik ko‘proq kimlar o‘rtasida kuzatiladi** | Yosh avlod o‘rtasida | 46,89 | Katta va o‘rta avlod o‘rtasida | 25,12 | O‘rta va kichik avlod o‘rtasida | 15,31 | Katta va kichik avlod o‘rtasida | 12,68 |
| **Qiyin vaziyatda boshqalar qanday munosabatda bo‘ladi** | Har tomonlama yordam beriladi | 60,77 | Faqat fikr bildiriladi | 27,03 | Tanqid qilinadi | 7,42 | E’tiborsizlik kuzatiladi | 4,78 |
| **Kundalik vazifalar qanday taqsimlanadi** | Kattalar taqsimlaydi | 37,08 | Bir-ikki a’zo zimmasiga tushadi | 33,01 | Aniq taqsimlangan | 18,66 | Taqsimlanmagan | 11,24 |

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, katta avlodning ustun o‘rni yoshlar fikrini inkor etish bilan birga kechmaydi. Respondentlarning yarmi (50,00 %) katta avlod yoshlar tanlovini ba’zan qo‘llab-quvvatlashini, 39,71 foizi har doim hurmat bilan qabul qilishini bildirgan, ikkisi birgalikda 89,71 foizni tashkil etadi. Yoshlar fikri e’tiborsiz qoldirilishi (7,42 %) yoki umuman qabul qilinmasligi (2,87 %) kam uchraydi. Biroq ijobiy javoblarning yarmi “ba’zan” variantiga tegishli bo‘lib, qo‘llab-quvvatlash har doim ham izchil emasligini ko‘rsatadi.

Kelishmovchiliklar eng ko‘p yosh avlod vakillari o‘rtasida kuzatilgan (46,89 %), katta avlodning boshqa avlodlar bilan kelishmovchiliklari esa alohida-alohida ancha kam qayd etilgan (25,12 % va 12,68 %). Oilalarga tashrif va suhbat jarayonida yoshlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ko‘pincha jiddiy nizo emas, kundalik hayotda yuzaga keladigan qisqa tortishuvlar shaklida namoyon bo‘lishi kuzatildi. Shu tariqa suhbat va kuzatuv so‘rov natijalarini to‘ldirdi, biroq ular tadqiqotimizda mustaqil natija emas, yordamchi ma’lumot sifatida qaraladi.

Qiyin vaziyatda respondentlarning aksariyati (60,77 %) oilada har tomonlama yordam ko‘rsatilishini bildirgan, biroq 27,03 foizi faqat fikr bildirilishini qayd etgan, ya’ni ma’naviy qo‘llab-quvvatlash har doim ham amaliy yordamga aylanmaydi. Bu natija avlodlararo birdamlik modelida amaliy yordam almashinuvi alohida o‘lchov sifatida ajratilishi bilan mos keladi [7]. Kundalik vazifalarda esa aniq taqsimot kam uchraydi (18,66 %): ko‘pincha ularni kattalar taqsimlaydi (37,08 %) yoki bir-ikki a’zo zimmasiga tushadi (33,01 %). Guruhda boshqa kishilar mavjudligi sababli shaxsiy mas’uliyat hissi pasayishi, ya’ni mas’uliyatning tarqalishi hodisasi [14] bunday holatni izohlashga yordam berishi mumkin.

## MUHOKAMA

Olingan natijalar ko‘p avlodli oilalarda avlodlararo munosabatlarni faqat birdamlik yoki faqat ziddiyat nuqtayi nazaridan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tadqiqot doirasida oilaviy qarorlarni qabul qilish, yosh avlod vakillarining fikri va tanloviga munosabat, kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi, o‘zaro yordam hamda kundalik oilaviy vazifalarning taqsimlanishi kabi jihatlar kompleks ravishda o‘rganildi. Tahlil natijalari ushbu jarayonlarning bir-biridan mustaqil emas, balki o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Oilaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida katta va o‘rta avlod vakillarining ustun mavqega ega bo‘lishi Salvador Minuxin tomonidan ilgari surilgan oilaviy ierarxiya g‘oyasi bilan muayyan darajada mos keladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, oilaviy tizim a’zolari teng mavqega ega bo‘lmay, ularning o‘rni, vakolati va mas’uliyati oilaning ichki tuzilishi hamda faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi [6]. Ko‘p avlodli oilalarda bunday ierarxik munosabatlar, ayniqsa, avlodlar o‘rtasidagi mavqe va mas’uliyat taqsimotida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, katta avlodning qaror qabul qilishdagi ustun mavqei yosh avlodning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va ayrim vaziyatlarda uning tanlovini qo‘llab-quvvatlash bilan birga kechishi mumkin. Demak, oiladagi mavqeyiy ustunlik yosh avlod fikrining mutlaq inkor etilishini anglatmaydi. Ushbu holatni sharqona oilalarga xos bo‘lgan katta avlod tajribasi va fikriga alohida ahamiyat berish an’analari bilan izohlash mumkin. Biroq mazkur izoh tadqiqot doirasida alohida tekshirilmaganligi sababli uni ehtimoliy talqin sifatida baholash lozim.

Vern Bengtson va hammualliflarining avlodlararo birdamlik modelida ta’kidlanganidek, birdamlik va ziddiyat bir-birini istisno qiluvchi hodisalar emas, balki bir oilaviy munosabatlar tizimida bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin [8]. Tadqiqot natijalari ham ushbu nazariy qarashni muayyan darajada tasdiqlaydi. Xususan, oilada o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lishiga qaramay, kundalik munosabatlarda turli kelishmovchiliklar ham uchraydi. Yosh avlod vakillarining tanlovi va fikriga munosabat ko‘proq shartli qo‘llab-quvvatlash shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni katta avlod vakillari ayrim vaziyatlarda yoshlarning qarashlari va tanlovini ma’qullasa, boshqa holatlarda ularga nisbatan o‘z munosabati va talablarini ustuvor qo‘yishi mumkin. Kelishmovchiliklarning esa asosan katta va kichik avlod o‘rtasida emas, balki yosh avlod vakillarining o‘zaro munosabatlarida hamda kundalik hayotdagi turli masalalar yuzasidan yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu holat avlodlararo munosabatlardagi ziddiyatlarning faqat yosh va katta avlod qarashlari o‘rtasidagi tafovutlar bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi.

O‘zaro qo‘llab-quvvatlash masalasiga e’tibor qaratilganda, qiyin vaziyatga tushgan oila a’zosiga yordam ko‘rsatish ko‘pchilik oilalarda kuzatilishi bilan birga, ayrim oilalarda bunday yordam faqat maslahat berish yoki fikr bildirish bilan cheklanishi namoyon bo‘ladi. Avlodlararo birdamlik modelida amaliy yordam almashinuvi va hissiy yaqinlik o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, alohida o‘lchovlar sifatida qaraladi [7]. Tadqiqot natijalari ham ma’naviy va hissiy qo‘llab-quvvatlash har doim

ham bevosita amaliy yordam bilan birga kechmasligini ko‘rsatadi. Bu esa oilaviy birdamlikni baholashda yordamning mavjudligini emas, balki uning qanday shaklda va qay darajada amalga oshirilishini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Shunga o‘xshash holat kundalik oilaviy vazifalarning taqsimlanishida ham kuzatiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy yumushlar barcha a’zolar o‘rtasida aniq va kelishilgan tartibda taqsimlanishi nisbatan kam uchraydi. Ayrim oilalarda kundalik vazifalar katta avlod vakillari tomonidan belgilanadi, boshqa holatlarda esa asosiy mas’uliyat bir yoki ikki nafar oila a’zosi zimmasiga yuklanadi. Ijtimoiy psixologiyada guruh a’zolari sonining ortishi ayrim vaziyatlarda individual mas’uliyat hissining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi [14]. Ushbu nazariy qarashdan kelib chiqib aytish mumkinki, ko‘p avlodli oilalarda a’zolar sonining ko‘pligi oilaviy vazifalar va mas’uliyatning o‘z-o‘zidan teng taqsimlanishini kafolatlamaydi. Aksincha, vazifalarning aniq belgilanmaganligi ayrim a’zolarning zimmasiga ortiqcha yuk tushishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ko‘p avlodli oilalarda avlodlararo munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday oilalarda ierarxik munosabatlar, yosh avlod fikriga munosabat, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, kelishmovchiliklar va kundalik mas’uliyat taqsimoti bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ko‘p avlodli oilalardagi sog‘lom munosabatlarni ta’minlashda avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni mustahkamlash, yoshlarning fikrini inobatga olish, amaliy yordam almashinuvini rivojlantirish hamda oilaviy vazifalarni imkon qadar adolatli taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari ko‘p avlodli oilalarda avlodlararo munosabatlar murakkab, ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq jarayonlar majmuasi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Oilaviy qarorlarni qabul qilish jarayonida ustunlik, asosan, katta va o‘rta avlod vakillariga tegishli bo‘lib, bu holat ko‘p avlodli oilalarda avlodlar o‘rtasida muayyan ierarxik munosabatlar shakllanganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, katta avlodning oiladagi yetakchi mavqei yosh avlod vakillarining fikri va qarashlari to‘liq inkor etilishini anglatmaydi. Biroq yoshlarning mustaqil tanlovi va qarorlariga munosabat barcha holatlarda bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi.

Tadqiqot davomida kelishmovchiliklar, asosan, yosh avlod vakillarining o‘zaro munosabatlarida va kundalik hayotga oid masalalar yuzasidan yuzaga kelishi aniqlandi. Qiyin hayotiy vaziyatlarda oila a’zolarining bir-biriga yordam ko‘rsatishi ko‘p avlodli oilalarga xos muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Biroq hissiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash har doim ham bevosita amaliy yordam bilan uyg‘unlashmasligi kuzatildi. Shuningdek, kundalik oilaviy vazifalarning barcha a’zolar o‘rtasida aniq va kelishilgan tartibda taqsimlanishi ham yetarli darajada shakllanmagan.

Umuman olganda, ko‘p avlodli oilalarda avlodlararo munosabatlar ierarxik ustunlik, o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash, kelishmovchiliklar va kundalik mas’uliyat taqsimoti kabi jihatlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Shu sababli bunday oilalardagi munosabatlarni faqat birdamlik yoki faqat ziddiyat nuqtayi nazaridan baholash to‘g‘ri emas. Ularni yaxlit oilaviy tizim doirasida, turli avlod vakillarining o‘zaro ta’siri va munosabatlar dinamikasini hisobga olgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Akramova F. A. va b. Oila ensiklopediyasi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2019.
2. Shoumarov G‘. B., Haydarov I. O., Sog‘inov N. A. Oila psixologiyasi. -Toshkent: Sharq, 2015.
3. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. Patterns and trends in household size and composition: Evidence from a United Nations dataset (ST/ESA/SER.A/433). – New York: United Nations, 2019.
4. Pew Research Center. The demographics of multigenerational households. - 2022, March 24. -URL:https://www.pewresearch.org/social-trends/2022/03/24/the-demographics-of-multigenerational-households/
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda 38,4 % uy xo‘jaliklarida 6 va undan ko‘p kishilar istiqomat qilmoqda. - 2024, 29-iyul.
6. Minuchin S. Families and Family Therapy. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974.
7. Bengtson V. L., Roberts R. E. L. Intergenerational solidarity in aging families: An example of formal theory construction // Journal of Marriage and the Family. -1991. - Vol. 53, No. 4. - P. 856–870. – DOI: 10.2307/352993.
8. Bengtson V., Giarrusso R., Mabry J. B., Silverstein M. Solidarity, conflict, and ambivalence: Complementary or competing perspectives on intergenerational relationships? // Journal of Marriage and Family. - 2002. - Vol. 64, No. 3. - P. 568-576.
9. Salayeva M. S. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, 2002.
10. Haydarova H. R. Jinsiy identifikatsiya jarayoniga oilaviy rollar differensiyasining ta’siri (ko‘p bo‘ginli va nuklear oilalar misolida): Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2007.
11. Dalimova N. M. Turli avlod vakillari hayotiy qadriyatlarining ijtimoiy-psixologik determinantlari: Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022.
12. Сапоровская М. В. Психология межпоколенных отношений в семье: дис. д-ра психол. наук. - Кострома: Костромской государственный университет им. Н. А. Некрасова, 2013.
13. Дудина С. Ю. Межпоколенное взаимодействие в расширенных семьях: дис. канд. психол. наук. - Кострома: Костромской государственный университет им. Н. А. Некрасова, 2013.
14. Darley J. M., Latané B. Bystander intervention in emergencies: Diffusion of responsibility // Journal of Personality and Social Psychology. - 1968. - Vol. 8, No. 4. - P. 377-383.